
MILLIY STRATEGIYADAGI VAZIFALAR IJROSI TAMINLANADI

Giyohvandlikka qarshi kurashish dolzarb oyligi

Tuman hokimligida majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6 maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son farmoni bilan tasdiqlangan Milliy strategiyadagi vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida seminar o'tkazildi.

Seminarda tuman hokimligi, prokuratura, IIB, DSI, MMTB hamda jamoachilik bilan ish olib boruvchi tashkilotlar mas'ullari ishtirok etishdi.

Bu bo'yicha viloyat hokimining 2024 yil 24 sentyabrdagi "Farg'ona viloyatida giyohvandlikka qarshi kurashishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilingan. Unga asosan, 2024 yilning 1-31 oktyabr kunlari "Giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha "Dolzarb oylik" idoralararo kompleks chora-tadbirlar o'tkazilishi belgilangan.

Seminarda qatnashgan mas'ullar giyohvandlik vositalarining inson salomatligiga ta'siri va oqibatlari, tumanimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga chek qo'yish, aholida ularni iste'mol qilishga qarshi "immunitet"ni shakllantirish bo'yicha ma'ruza qilib, tushunchalar berishdi. Aholi, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni, o'quvchi va talabalar orasida kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni iste'mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta'lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta'sirchan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni o'tkazib borish kerakligi aytili.

Shu bilan birga, mutaxassislar giyohvandlik, tamaki va alkogol moddalar girdobiga tushgan yoshlarning organizmidagi salbiy o'zgarishlar, ularning umumiy sog'lig'iga, jumladan naslga, miya va yurak, qon-tomir faoliyatiga, ruhiyatiga, shu bilan birga, ongi va tafakkuriga salbiy ta'sir o'tkazishi haqida tahliliy ma'lumotlar va faktlar asosida, ko'rgazmali targ'ibot materiallaridan foydalangan holda tushuntirdilar.

"Dolzarb oylik" davomida hamda doimiy ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar har bir ta'lim muassasalarida, korxonalar va tashkilotlarda hamda mahallalarda o'ziga xos tarzda, yuqori saviyada o'tkazilishiga kelishib olindi.

2024-10-04 08:50:17